



## THE REACTION OF HISTORIANS TO THE WORKS OF ABDURAKHMAN IBN KHALDUN

*Makhzuna I. Sobirova*

*PhD's student*

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** History, philosopher, islam, society, state.

**Received:** 28.06.24

**Accepted:** 30.06.24

**Published:** 02.07.24

**Abstract:** In this article, the opinions and views of local and foreign scientists who conducted research on the works of Abdurahman ibn Khaldun were studied, and the views of scientists were summarized and analyzed.

## ABDURAHMON IBN XALDUN QALAMIGA MANSUB ASARLARGA TARIXCHI OLIMLARNING MUNOSABATI

*Maxzuna I. Sobirova*

*Tayanch doktorant*

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Tarix, faylasuf, islom, jamiyat, davlat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Abdurahmon ibn Xaldun qalamiga mansub asarlar ustida tadqiqot olib borgan mahalliy va xorijiy olimlar fikrlari va qarashlari o'rganilgan va olimlar nuqtayi nazarlari umumlashtirilib, tahlil qilingan.

## РЕАКЦИЯ ИСТОРИКОВ НА ТРУДЫ АБДУРАХМАНА ИБН ХАЛДУНА

*Махзуна И. Собирова*

*Докторант*

*Международная исламская академия Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** История, философ, ислам, общество, государство.

**Аннотация:** В данной статье изучены мнения и взгляды отечественных и зарубежных учёных, проводивших исследования творчества Абдурахмана ибн

## KIRISH

Tarix haqida fikr yuritish insoniyatning ilk davrlaridan boshlab, bugungi kungacha davom etadigan uzoq jarayonni qamrab oladi. Mifologik davrning rivoyatlarga asoslangan tarix bayoni bilan boshlanib, antik davrda tarixshunoslik shaklida davom etgan bu jarayon Ibn Xaldun (vaf. 1406) bilan ilmiy-falsafiy faoliyat sifatida o'ziga xos intellektual sohaga aylandi. Ibn Xaldun tarix ilmi va falsafasiga oid qarashlarini, xususan, dunyo tarixiga oid qarashlarini "Kitob'ul-ibar" deb nomlangan asarining "Kirish" bo'limiga kiritgan. Ibn Xaldunning bu asari tarixiy tafakkur nuqtayi nazariga asoslangan va shu mazmunda o'z davriga qadar namunasi bo'lmagan usul (umron) ilmini kiritdi va uni konseptual va uslubiy jihatdan asoslab berdi. U tarixni, insonni, jamiyatni va jamiyatdagi jarayon va institutlarni falsafiy usul bilan, yaxlit yondashuv bilan tadqiq qildi. Tadqiqotchilar uni tarixning birinchi faylasufi, tafakkur tarixida ilk sotsiolog sifatida tan olishgan.

## ASOSIY QISM

Abdurahmon ibn Xaldun nafaqat musulmon olamida, balki butun insoniyat tarixida eng muhim va ko'zga ko'ringan shaxslardan biri hisoblanadi. Ibn Xaldun haqida xorijda juda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Hayoti va faoliyati borasida olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida uning "Muqaddima" va "At-Ta'rif" asarlariga tayanadilar. "Muqaddima" asarini ingliz tiliga tarjima qilgan olim Allen James Fromherz shunday deydi: "Mavjud tarjimayi hollargina Ibn Xaldunning hayoti va ijodi, uning bosib o'tgan yo'li haqida bahs-munozara qila oladi." [1] Ya'ni bundan anglashiladiki, u haqida yanada tadqiqotlarni ko'paytirish kerak va bu tadqiqotlar barcha tillarda olib borilishi kerak. Chunki, Ibn Xaldun ijodi juda boy va unsoniyatga uning ujudini ko'proq yetkazib berish kerak.

Ibn Xaldun shuhrat qozongan davrda islom olamida edi juda mashhur insonlar yashab, ijod qilgan. Shamsaddin Isfahoniy (vaf. 1289), Shamsaddin Samarkandiy (vaf. 1310), Shamsaddin Buxoriy (amir Sulton) (vaf. 1430), ustozi buyuk mantiq olimi Qutbuddin Roziy, Taftazoniy (vaf. 1390), Sayyid Sharif Jurjoniy (vaf. 1413) o'sha davrning yetakchi ilohiyotchilaridandir.

Shubhasiz, "At-Ta'rif" zamonaviy islomgacha bo'lgan adabiyotdagi eng batafsil avtobiografiyalardan biri bo'lib, Fromherz ta'kidlaganidek, Ibn Xaldunning o'zi haqida bebaho ma'lumotlar beradi. Bu tadqiqotlar uchun asosiy manba hisoblanadi. Biroq, Valter Fischel ta'kidlaganidek, olimlar faqat shu asar bilangina cheklanib qolmasliklari kerakligini, Xaldun bilan bir davrda yashagan olimlar asarlarini tadqiq qilish orqali Xaldun hayoti haqidagi ma'lumotlarni yanada boyitish zaruratini eslatadi.

Ibn Xaldun Tunisda Abu Abdulloh ibn Ibrohim al-Abili (1282-1356) qo'lida 3 yil falsafa ilmini o'rgangan. [2] Al-Abili uning o'sishi va yuksak tarbiya egasi bo'lishiga katta hissa

qo‘shgan. Ibn Xaldun bir qator hurmatli ustozlar qo‘l ostida Qur‘onni o‘rgangan va yod olgan. Shu bilan birga u hadislar, she‘rlar yod olishni xush ko‘rgan. Shuningdek, u X asrda yashab o‘tgan arab yozuvchisi Abul Faraj al-Isfahoniyning katta hajmli “Kitob al-ag‘oniy” asarini to‘la yod olgani haqida manbalarda qayd etilgan.

Yana bir ustoz Ibn Abdulloh al-Jayyoniyni unga imom Molikning fiqh ilmiga oid “Kitob al-Muvatto” kitobidan ta‘lim bergan. Tunisning mashhur qozisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdus-Salom esa yosh Ibn Xaldun bilan qiziqib qoladi va shaxsan unga Molikiylik mazhabida qonunlarni muayyan ishlarga qanday qo‘llash kerakligini ko‘rsatib beradi.

Uning juda ko‘p ustozlari va yaqinlari, xususan, ota-onasi ham vabodan vafot etadilar. Bunday katta yo‘qotishlar, albatta, Ibn Xaldunning qattiq tushkunlikka tushishiga sabab bo‘ldi. Lekin ko‘p o‘tmay u o‘zini qo‘lga olib, ilmga sho‘ng‘ish orqali g‘am-tashvishlarini yengishga harakat qildi. U boshqa ustozlardan ta‘lim olishni to‘xtatmadi. Uning eng yaqun do‘sti va ustoz, Granada vaziri lavozimida ishlagan tarixchi Ibn Al-Xatib va andalusiyalik so‘fiy ustoz Mahdi Iso az-Zayyatdan turli ilmlar, ayniqsa, tasavvuf ilmidan saboq oldi. Ibn Xaldun olgan eng muhim saboqlaridan biri ilm va ilmning chegarasi edi. [3] Bu uning o‘zi yozgan asarlarida ham namoyon bo‘lgan.

Ibn Xaldun hayoti va uning asarlarini o‘rganish xorijiy davlatlarda ancha oldin boshlangan. Amerikalik olim Volter J.Fischel Ibn Xaldun hayotiga va ijodiga qiziqqa boshlagan va dastlab 1952-yilda Ibn Xaldun va Amir Temurning 1401-yilda Damashq shahridagi uchrashuvi haqida “Ibn Khaldun and Tamerlane: their Historic Meeting in Damascus, 1401 AD” (“Ibn Xaldun va Amir Temur”) nomli kitob yozgan. [4] U bu kitobni Ibn Xaldunning “At-Ta‘rif” asari asosida yozadi. Shuningdek, 1967-yilda “Ibn Khaldun in Egypt” (“Ibn Xaldun Misrda”) nomli asar yozgan. Bu kitob islom tarixi, Ibn Xaldun jamiyatdagi o‘rni va uning tarixiy izlanishlari haqida batafsil hikoya qiladi. [5]

Yana bir olim Shmidt Nataniel 1930-yilda Ibn Xaldun hayoti va ijodi haqida “Ibn Khaldun: historian, sociologist and philosopher” nomli kitob yozgan bo‘lib, mazkur asar 1967-yilda Nyu Yorkda qayta nashr etilgan. [6] Mazkur kitobda Ibn Xaldunning tarixchi, faylasuf va sotsiolog sifatidagi qirralari namoyon bo‘ladi.

Ibn Xaldun hayoti va uning asarlarini o‘rganish xorijiy davlatlarda ancha oldin boshlangan va, asosan, uning “Muqaddima” asari turli tillarga tarjima qilinib, bu borada ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Dastlab, Professor Frans Rozental Xaldunning “Muqaddima” asarinining 3 jildlik izohli tarjimasini chop etishga muvaffaq bo‘lgan. [7]

Turk olimi Umut Hassan ham “Ibn Xaldun metodi va siyosiy nazariyasi” asarida Ibn Xaldunning davlat va jamiyat haqida yozgan g‘oyalarini yoritgan. U o‘z tadqiqotida Professor Frans Rozentalning asarlaridan foydalangan va shu asosida bir nechta xulosalar bergan. Umit

Hasan o‘z asari muqaddimasida Ibn Xaldunning “Muqaddima” asaridagi yuzaga keladigan yondashuv va muammolarni o‘rganib, Ibn Xaldunning o‘ziga xosligini himoya qiluvchi Rozentalning fikrlarini yetkazadi: “F. Rozental Ibn Xaldunni asl tadqiqotchi sifatida ko‘radi. Ibn Xaldunning ijtimoiy hodisalarga realistik qarashi empirik va kuzatish usullari orqali amalga oshirilgan. E.Rozental Ibn Xaldun o‘z ta’limotida islom ilmlari bilan birga dunyoviy ilmlarni ham o‘rganib, davlat boshqaruvining umumiy tamoyillarini ochib beradigan darajaga yetganini va aslida islom tamoyillarini o‘z nazariyasining umumiy doirasiga joylashtirganini ta’kidlaydi. Muqaddima empirik yondashuvlar va mushohadalarga asoslanib, uni "Sivilizatsiya yig‘indisi" deb ta’riflaydi. Bunday qarashga qaramay, Ibn Xaldunning an’anaviy ta’lim olganligi uning voqealarga real yondashishiga to‘sqinlik qilmadi” [8]

Ibn Xaldunning aqliy bilimlari haqidagi yana bir fikr Muhsin Mahdiyga tegishlidir. U Ibn Xaldunning tarix falsafasiga to‘xtalib, uning maqsadini “Ibn Xaldun yondashuvining individual maqsadi va falsafiy ildizlarini aniqlash” deb belgilagan asari muqaddimasida Ibn Xaldun Ibn Rushd ta’sirida mutafakkir bo‘lganligini bayon etadi. Ibn Xaldun shariatni ham, falsafani ham xavf ostida ko‘rganini va ikkalasini ham qutqarishni maqsad qilganligini bildirgan. Mahdiyga ko‘ra, Ibn Xaldun tarixning jamiyat va siyosat bilan aloqasini sezgan va falsafa tamoyillariga asoslangan ijtimoiy fanlar bu masalaga o‘z ahamiyatlarini qaratishi zarurligini bildirgan. Mahdiyning fikricha, Ibn Xaldun yunon falsafasining izdoshidir. [9]

Yana bir marokashlik olim Muhammad Obid al-Jabriy Ibn Xaldun asarlarini va aynan “Muqaddima” asarini boshqa muqaddimalardan ajratib, bu farqni quyidagicha izohlaydi: “... Boshqalar odatda, mavjud fanning istiqbolini mustahkamlash uchun yozilgan; Ibn Xaldunning muqaddimasi yangi ilm-fanni yaratish uchun yozilgan.” [10] Chunki, Jabriyning “Yangi ilm yaratish uchun yozilgan” degan gapidan Ibn Xaldunning Ibn Rushd orqali aristotelchi mutafakkir ekanligi xulosa qilinmaydi, aksincha, Jabriyning bu gapidan faqat Ibn Xaldun asl mutafakkir degan xulosaga kelish mumkin.

2002-yilda Dortmund kollejida Ibn Khaldun haqida bakalavr dissertatsiyasini yozgan olim Allen James Fromherz 2010-yilda Xaldun hayoti va ijodi haqida “Ibn Khaldun, life and times” asarini yozadi. [11] Aynan shu asarda Xaldun hayotining xronologiyasini tuzib chiqqan.

Yana bir muhim manba “The Maghrib in the Mashriq” to‘plamiga kiritilgan Takao Itoning “Writing the biography of Ibn Khaldun” nomli maqolasi bo‘lib, bu maqolada muallif Ibn Xaldun hayotini o‘rganishda nafaqat, Xaldunning asarlaridan foydalanadi, balki o‘z davrigacha yaratilgan tarjimaiy hollardan va Xaldun bilan zamondosh bo‘lgan Ibn Xatibning asarlaridan foydalangan holda uning avtobiografiyasini yozishga harakat qilgan. [12]

Lavrencening “Ibn Khaldun and Islamic Ideology” nomli asarida ham O‘rta Sharq va islom ilmlari, sotsiologiya va antropologiya, ijtimoiy ilmlar, din va jamiyat borasida fikr-mulohazalar bildirilib, Ibn Xaldunning o‘z davri ilm-faniga ta‘siri haqida atroflicha ma‘lumot berilgan. [13]

Xaldun ijodini o‘rgangan yana bir olim Vaseem el-Rayes o‘zining “The book of allusions: a new translation of the title to ibn Khaldun’s Kitab al-Ibar” [14] nomli maqolasida Ibn Xaldunning yozish uslubi va ta‘limotining mazmunini ochib berishga harakat qiladi. Maqola “Kitob al-Ibar”ning umumiy tuzilishi va asosiy mazmuni haqida ma‘lumot berishdan boshlanadi va so‘ngra bularning sarlavhada qanday mahorat bilan tasvirlanganligini ko‘rsatib beradi. Bu yerda olim bahs yuritar ekan, yozuv uslubiga e‘tibor berish Ibn Xaldun ta‘limotining teranligini ochib berish uchun zarur bo‘lgan muhim talqin vositasidir deya fikr bildiradi. Ushbu yangi tarjima va tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Kitob al-Ibar” tarixga nisbatan teran nigoh bilan qarashga intilganligi bir qatorda Ibn Xaldunning siyosat borasidagi o‘zigacha yozilgan tarixga nisbatan tanqidiy nazar bilan qarab, bildirilgan fikrlarga qarshi chiqishga harakat qilgan va har bir gapini dalillar asosida asarida ifodalashga intilgan.

Yurtimizdagi olimlar ko‘proq Xaldunni sotsiolog sifatida tadqiq qilishgan. Sababi, uning “Muqaddima” asarida ijtimoiy hayot va insonning shaxs bo‘lib yetishish kamoloti, axloqiy masalalar juda keng ko‘lamli yoritilgan. Mazkur asar juda ko‘p tillarga tarjima qilingan. Shu kunga qadar o‘zbek tilida Ibn Xaldun haqida nisbatan kam sonli tadqiqot ishlari mavjud. Ulardan biri Sulaymonov Jasur Baxtiyorovichning “Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasi axloqiy-aksiologik asoslarning germenevtik tadqiqi” mavzusida dissertatsiya ishi yoqlangan. Tadqiqot “Muqaddima” asari asosida yozilgan. Ibn Xaldun jamiyat haqida fundamental fikrlarini davom ettiradi. Mutafakkirning fikricha, taassub jamiyat hayotining asosi, ya‘ni poydevoridir. “Taassub”, “asabiyya” atamaları arab tilidan kelib chiqqan. “Taassub” so‘zi, “taassaba” V bob fe‘lining masdar shaklidan bo‘lib, tarjimasi «Vatan, millatga bo‘lgan otashin muhabbat, fanatizm» demakdir.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida, Abdurahmon ibn Xaldunning asarlari, uning tarjimayi holi ko‘plab xorijiy tadqiqotchilarning asosiy obyekti va predmeti bo‘lib xizmat qilib kelgan. Lekin yurtimizda olimning ilmiy merosi nisbatan kam tadqiq qilingan va uning, ayniqsa, “Tarixi ibn Xaldun” asari keng o‘rganilishi zarurati bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Sababi, bu asarda nafaqat islom tarixi, balki, butun insoniyat tarixi qamrab olingan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Allen James Fromherz. Ibn Khaldun, life and times. works. - Edinburgh, Scotland: Edinburgh University Press Ltd, 2010. – B.39

2. Nassif Nassar. Le Maitre d'Ibn Khaldun: Al-Abili. – Paris, France: Stadia Islamica journal, Brill, 1964 N.20. -103-114 (14 pages)
3. Ibn Xaldun. At-Tarif Ibn Xaldun. – Livan: Dorul-kitab nashriyot uyi, 1979. – B.20
4. Volter J.Fischel. Ibn Khaldun and Tamerlane: their Historic Meeting in Damascus, 1401 AD - California, USA: University of California Press Berkeley and Los Angeles, 1967. – 151 b.
5. Volter J.Fischel. Ibn Khaldun in Egypt. - California, USA: University of California Press Berkeley and Los Angeles, 1967. – 324 b.
6. Schmidt Nathaniel. Ibn Khaldun: historian, sociologist and philodopher. – Nyew York, USA: AMS Press, 1967. -67 b.
7. Frans Rozental. The Muqaddimah. – New Jersey, USA: Princeton University Press, 1958. – 681 b
8. Umit Hassan. Ibn Haldun metodu ve Siyaset Teorisi. – Istanbul: Dogu Bati Yatinlari, 2010. – B.234
9. Muhsin Mahdi. Ibn Khaldun`s philosophy of history. USA, Chicago: Univ.of Chicago Press, 1971. – 325 p
10. Muhammed Abid al- Jabri. Felsefi Mirasımız ve Biz. Istanbul, 2000, s. 308.
11. Allen James Fromherz. Ibn Khaldun, life and times. works. - Edinburgh, Scotland: Edinburgh University Press Ltd, 2010. – 191 b
12. Takao Ito. Writing the biography of Ibn Khaldun. Berlin, Germany: “The Maghrib in the Mashriq” Knowledge, travel and Identify, volume 40, CPI books GmbH, Leck, 2021. – B.513-535
13. Lavrence. Ibn Khaldun and Islamic ideology. Brill, 1984, 136 b
14. Vaseem el-Rayes. The book of allusions: a new translation of the title to ibn Khaldun`s Kitab al-Ibar // Religious studies and theology journal, Equinox Publishing Ltd. – Sheffield, England, 2013. -163-184-b